

**YOSHLARNING SIYOSIY IJTIMOYILASHUVIDA SOTSIAL  
INSTITUTLARNING AHAMIYATI**

**Nurqulov B.G'. -**  
*O'zMU o'qituvchisi*

Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvida sotsial institutlarning o'rnini alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki sotsial institutlar – bu jamiyat hayotini tashkil etuvchi, ijtimoiy tizimni barqarorlashtiruvchi va yosh avlodni ijtimoiy qadriyatlarga yo'naltiruvchi asosiy tizimlardir. Ayniqsa, oila, ta'lim, din, ommaviy axborot vositalari va siyosiy institutlar yoshlarning siyosiy ongini shakllantirish, ularni jamiyatdagi fuqarolik pozitsiyasini aniqlash hamda siyosiy faol subekt sifatida kamol topishida muhim rol o'ynaydi. Ularning mohiyatini tushuntirib berishda sotsiologiyada bir qator nazariy yondashuvlar mavjud. Ulardan T. Parsons va E. Dyurkgeym nazariyasiga ko'ra, "Sotsial institutlar jamiyatning ijtimoiy tizimini barqarorlashtiruvchi va tartibga soluvchi mexanizmlardir" [1, 203; 208] deb ta'kidlagan. Parsonsning "ijtimoiy tizim" konsepsiyasida sotsial institutlar shaxslarning xulq-atvorini me'yorlashtiradi, ijtimoiy rollarni taqsimlaydi va ijtimoiy tizimning muvozanatini saqlaydi. "Institutlar shaxsga ijtimoiy qadriyat va me'yornlarni singdirish orqali jamiyatning yaxlitligini mustahkamlaydi" [2, 208]. Demak, Parsonsning "ijtimoiy tizim" haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki sotsial institutlar, xususan ta'lim tizimi, yoshlarning dunyoqarashi va siyosiy ongini shakllantirish orqali jamiyat barqarorligini ta'minlaydi. P. Berger va T. Lukmanning yondashuviga ko'ra, sotsial institutlar shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ya'ni, ular orqali shaxs jamiyatda mavjud bo'lgan siyosiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtiradi. Institutlar "Shaxsni ijtimoiy tizimga moslashtiradi, unga siyosiy va fuqarolik ongini shakllantiruvchi ko'nikmalarni beradi" [3, 112; 119]. E. Dyurkgeym ta'kidlaganidek, "Sotsial institutlar jamiyatni bir butun tizim sifatida birlashtiradi, umumiy qadriyatlar asosida ijtimoiy birdamlikni shakllantiradi. Masalan, diniy institutlar axloqiy me'yornlarni mustahkamlasa, siyosiy institutlar fuqarolik birdamligini ta'minlaydi. Shu yo'l bilan institutlar ijtimoiy tizimni parchalanishdan himoya qiladi" [4, 45; 53] Demak shuni aytishimiz kerakki, Dyurkgeymning bu qarashi bugungi O'zbekiston sharoitida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki diniy, siyosiy va ta'lim institutlari yoshlarni ijtimoiy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash orqali jamiyat barqarorligi va fuqarolik birdamligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Sotsial institutlar bu jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini tashkil etuvchi barqaror tizim bo'lib, ular orqali jamiyat o'z qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazadi. Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvida sotsial institutlarning (oilal, ta'lim, din, OAV, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati) ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvida eng birlamchi va muhim ijtimoiy institutlardan biri oila hisoblanadi. Aynan oilada bola dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy me'yornlar va siyosiy xulq-atvorning dastlabki poydevori shakllanadi. Ota-ona va yaqin qarindoshlarning siyosiy e'tiqodlari, dunyoqarashi, fuqarolik pozitsiyasi farzandning siyosiy ijtimoiylashuv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. "Shaxsning jamiyatga nisbatan pozitsiyasi, siyosiy tizimga bo'lgan ishonchi va fuqarolik mas'uliyatini anglash darajasi ko'pincha oilaviy muhitda shakllanadi" [5, 71; 74]. Oilada siyosiy qadriyatlar shakllanishi bevosita ijtimoiy muloqot, kundalik hayotiy tajriba, ommaviy axborot vositalari orqali beriladigan axborotlarning muhokamasi orqali amalga oshadi. Masalan, ota-onaning siyosiy jarayonlarga qiziqishi, saylovlarda faol ishtiroki, davlat qonunlariga rioya qilishi farzandlar uchun bevosita namuna bo'lib xizmat qiladi. Bu esa bola ongida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni ijobiy talqinda shakllantiradi [6, 88; 92]. Shuningdek, oilada shakllanadigan axloqiy me'yornlar, mas'uliyat, hurmat, vatanparvarlik va qonunga itoatkorlik tuyg'ulari keyinchalik siyosiy qarashlar va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlovchi poydevor bo'lib xizmat qiladi. G. Meadning "interaksionizm nazariyasi"ga ko'ra, "Insonning ijtimoiy identifikatsiyasi va o'zligini anglash jarayoni dastlabki ijtimoiy guruhlar – xususan, oilada yuz beradi" [7, 135; 139] deb ta'kidlagan. Fikrimizcha siyosiy ijtimoiylashuvning birinchi bosqichi sifatida oila institutining roli o'ta muhimdir. Siyosiy ijtimoiylashuvning bu bosqichida shaxs siyosiy

tizimni to'liq tushunmasa ham, oilaviy muloqot va kuzatishlar orqali asosiy siyosiy qadriyat va me'yorlarni ongiga singdiradi. Natijada, oila shaxsni siyosiy tizimga moslashtiruvchi, fuqarolik identifikatsiyasini shakllantiruvchi birlamchi "ijtimoiy maktab" sifatida namoyon bo'ladi" [8, 56; 60]. Ta'bir joizki, oila siyosiy ijtimoiylashuvning eng muhim bosqichini tashkil etadi. Chunki siyosiy qarashlar, fuqarolik mas'uliyati, davlatga nisbatan ishonch va siyosiy faoliyatga bo'lgan munosabatning asosiy tamoyillari aynan oilada shakllanadi. Bu esa oila institutini siyosiy tizim va shaxs o'rtasidagi birlamchi ko'priq sifatida baholash imkonini beradi.

Ta'lim tizimi ham siyosiy ijtimoiylashuv jarayonida markaziy o'rin tutuvchi eng muhim sotsial institutlardan biridir. "Agar oila birlamchi ijtimoiylashuvni ta'minlasa, ta'lim tizimi shaxsning siyosiy qarashlarini shakllantirish va mustahkamlashning ikkilamchi, lekin chuqur bosqichini tashkil etadi. Aynan maktab, litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalari orqali yosh avlod siyosiy tizim, siyosiy institutlar, davlat boshqaruvi mexanizmlari va fuqarolik jamiyati haqida tizimli bilimga ega bo'ladi" [9, 112; 117]. Fikrimizcha, bu fikr juda to'g'ri sababi oila insonni jamiyatga kirishga tayyorlasa, ta'lim tizimi uni ongli fuqaroga aylantiradi. Aynan ta'lim jarayonida yoshlar siyosiy bilim, qadriyat va mas'uliyatni o'zlashtirib, davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga tayyor bo'ladi. Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvida ta'lim tizimining o'rnini markaziy va strategik ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biridir. Chunki aynan ta'lim jarayonida yosh avlod siyosiy bilimlar, qadriyatlar va fuqarolik mas'uliyatini o'zlashtiradi, jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllanadi. Ta'lim tizimi siyosiy ijtimoiylashuvning institutsional asosi bo'lib, siyosiy ongni shakllantirish va demokratik qadriyatlarni singdirishda asosiy rol o'ynaydi. Birinchidan, ta'lim tizimi siyosiy savodxonlikni oshiradi. Ta'lim muassasalarida siyosiy tizim, davlat boshqaruvi, konstitutsion tuzum, saylov tizimi, fuqarolik jamiyati va demokratiya haqidagi bilimlar yosh avlodga tizimli tarzda yetkaziladi. Mening nazarimda, bu fikr juda to'g'ri bayon etilgan, chunki ta'lim tizimi yoshlarning siyosiy dunyoqarashi va fuqarolik ongini shakllantiruvchi eng muhim ijtimoiy institutdir. Aynan ta'lim orqali yoshlar nafaqat siyosiy bilimga ega bo'ladi, balki demokratiya, qonun ustuvorligi va fuqarolik mas'uliyati kabi qadriyatlarni hayotiy prinsip sifatida qabul qiladi. Shu bois ta'lim siyosiy ijtimoiylashuvning poydevori sifatida qaralishi o'rinlidir. Ikkinchidan, ta'lim tizimi qadriyatlarni singdiruvchi asosiy ijtimoiy institutdir. O'quv jarayonida vatanparvarlik, qonunga hurmat, bag'rikenglik, inson huquqlariga e'tibor, fuqarolik mas'uliyati va demokratik qadriyatlar yoshlar ongiga singdiriladi. Bu jarayon nafaqat darsliklar, balki madaniy-ma'naviy tadbirlar, tarbiyaviy ishlar, talabalar klublari va tashkilotlari orqali ham amalga oshadi [10, 210; 218]. Fikrimizcha, bu fikr ta'lim tizimining nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyaviy missiyasini ham chuqur yoritadi. Chunki aynan ta'lim muhitida yoshlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtiradi, jamiyatda mas'uliyatli va tolerant fuqarolar sifatida shakllanadi. Shu bois ta'lim tizimi siyosiy madaniyatning eng samarali manbalaridan biri hisoblanadi. Uchinchidan, "Ta'lim tizimi yoshlarni siyosiy faollikka undaydi. Talabalar o'quv davrida turli ijtimoiy loyihalar, yoshlar tashkilotlari, talaba kengashlari va munozara klublari orqali siyosiy hayotga jalb etiladi. Bu ularning tashabbuskorlik, liderlik va ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, oliy ta'lim bosqichida yoshlar siyosiy jarayonlarni bevosita tushunish va ularda ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi" [11, 7; 16]. Mening nazarimda, bu fikr ta'lim tizimining amaliy ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Chunki aynan faol ishtirok orqali yoshlar siyosiy jarayonlarni chuqurroq anglaydi, o'z pozitsiyasini shakllantiradi va jamiyatdagi o'z rolini his etadi. Natijada, ular befarq emas, balki mas'uliyatli va faol fuqarolar sifatida voyaga yetadi.

Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvida sotsial institutlardan biri dinning o'rnini va ahamiyati masalasi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Diniy institutlar yoshlarning qadriyatlari va dunyoqarashini shakllantirishda tarixan muhim rol o'ynab kelgan. Ayniqsa, "Jamiyatning ma'naviy hayotida din ijtimoiy birdamlik, milliy o'zlikni anglash, fuqarolik mas'uliyati va siyosiy ongning tarkib topishida kuchli sotsial institut sifatida namoyon bo'ladi" [12, 203; 208]. Birinchidan, "Diniy institutlar yoshlar uchun ma'naviy-axloqiy tayanch vazifasini bajaradi. Diniy qadriyatlar yoshlarning jamiyatdagi o'rnini anglashiga, ijtimoiy normalar va axloqiy tamoyillarga amal qilishiga yordam beradi. Masalan, diniy ta'limotlarda adolat, mas'uliyat, birdamlik kabi tushunchalar siyosiy tizimga nisbatan ijobiy

munosabatni shakllantiradi” [13, 84; 92]. Fikrimcha, bu jihat diniy institutlarning siyosiy ijtimoiylashuvdagi asosiy rolini koʻrsatadi. Diniy qadriyatlar yoshlarni faqat axloqiy jihatdan tarbiyalab qolmay, balki ularni jamiyatdagi oʻz oʻrnini anglashga, masʼuliyatli va adolatli fuqarolar sifatida shakllanishga yoʻnaltiradi. Shu tariqa, diniy taʼlimotlar siyosiy ongning ijobiy rivojlanishida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Ikkinchidan, diniy institutlar fuqarolik ongini shakllantiruvchi maydon sifatida namoyon boʻladi.

Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvida sotsial institutlardan yana biri ommaviy axborot vositalari va internetning oʻrni zamonaviy sharoitda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki raqamli axborot asrida yoshlar siyosiy bilim, qarash va pozitsiyalarini koʻpincha aynan shu kanallar orqali shakllantiradi. OAV va internet nafaqat axborot manbai, balki siyosiy ijtimoiylashuvning samarali mexanizmi sifatida namoyon boʻladi. Birinchidan, “Ommaviy axborot vositalari siyosiy axborotning asosiy manbai sifatida yoshlarning siyosiy xabardorligini oshiradi. Televidenie, radio, gazeta, rasmiy axborot portallari, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali siyosiy yangiliklar, hukumat qarorlari, saylov jarayonlari, xalqaro siyosiy vaziyat haqida muntazam maʼlumotlar tarqatiladi. Bu esa yoshlar siyosiy voqealar haqida tezkor, keng koʻlamli va xilma-xil axborot olishiga imkon yaratadi” [14, 176; 187]. Fikrimizcha, ommaviy axborot vositalari yoshlarni siyosiy yangiliklardan xabardor qilish va ularni masʼuliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, “Internet siyosiy tafakkurni shakllantiruvchi interaktiv maydon vazifasini bajaradi. Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Telegram, X (Twitter), youtube), bloglar va podkastlar yoshlarni siyosiy masalalarni muhokama qilishga, oʻz fikrini bildirishga, turli nuqtai nazarlarni solishtirishga undaydi. Bunday jarayon siyosiy tafakkur, tanqidiy yondashuv va fuqarolik pozitsiyasining shakllanishini tezlashtiradi” [15, 44; 51]. Demak, internet yoshlarning siyosiy tafakkurini rivojlantirish va ularni faol fuqarolar sifatida shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi, chunki u fikr almashish, muhokama qilish va turli qarashlarni solishtirish imkonini beradi. Uchinchidan, “OAV va internet siyosiy faollikka undovchi omil sifatida namoyon boʻladi. Yoshlar siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari yoki davlat institutlarining faoliyatini onlayn kuzatib borish, fikr bildirish yoki aksiyalar haqida xabardor boʻlish orqali siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etish imkoniga ega boʻladi. Masalan, saylov kampaniyalari, ommaviy muhokamalar, onlayn petitsiyalar orqali siyosiy qarorlar shakllanishiga taʼsir koʻrsatish hollari shular jumlasidandir” [16, 63; 78]. Toʻrtinchidan, internet – bu yoshlarning siyosiy identifikatsiyasini shakllantiruvchi virtual makon hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ular oʻzlarini turli siyosiy qadriyatlar, mafkuralar va gʻoyalar bilan solishtiradi, shaxsiy pozitsiyasini aniqlaydi. Natijada, siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni yanada shaxsiy, ongli va faol tus oladi. Shuni aytish joizki, OAV va internet siyosiy ijtimoiylashuvning tezkorlik, interaktivlik va ommaviylik xususiyatlarini kuchaytiradi. Bu esa yoshlarni jamiyatning faol, xabardor va masʼuliyatli fuqarosi sifatida shakllantirishda strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Parsons, T. *Social Structure and Personality*. – New York: Free Press, 1964. – P. 203–208.
2. Parsons, T. *Social Structure and Personality*. – New York: Free Press, 1964. – P. 208
3. Berger, P., & Luckmann, T. *The Social Construction of Reality*. – New York: Anchor Books, 1966. – P. 112–119.
4. Durkheim, É. *Suicide: A Study in Sociology*. – Glencoe: Free Press, 1951. – P. 45–53.
5. Parsons, T. *The Social System*. – Glencoe: Free Press, 1951. – P. 71–74.
6. Almond, G., & Verba, S. *The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations*. – Princeton: Princeton University Press, 1963. – P. 88–92.
7. Mead, G. H. *Mind, Self and Society*. — Chicago: University of Chicago Press, 1934. – P. 135–139.
8. Berger, P., & Luckmann, T. *The Social Construction of Reality*. – New York: Anchor Books, 1966. – P. 56–60.
9. Parsons, T. *The Social System*. – Glencoe: Free Press, 1951. – P. 112–117.
10. Parsons T. *The Social System*. Free Press, 1951. – P. 210–218.
11. Niemi R., Hepburn M. *The Rebirth of Political Socialization. Perspectives on Political Science*, 1995. – P. 7–16.

12. Parsons, T. *Social Structure and Personality*. – New York: Free Press, 1964. – P. 203–208.
13. Durkheim, É. *The Elementary Forms of the Religious Life*. – New York: Free Press, 1995. – P. 84–92.
14. McCombs M., Shaw D. *The Agenda-Setting Function of Mass Media*. *Public Opinion Quarterly*, 1972, 36(2), – P. 176–187.
15. Castells M. *Networks of Outrage and Hope: Social Movements in the Internet Age*. Polity Press, 2012. – P. 44–51.
16. Bennett W. Lance. *Civic Life Online: Learning How Digital Media Can Engage Youth*. MIT Press, 2008. –P. 63–78.

#### REZYUME

Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvida oila, ta'lim, din, OAV va siyosiy institutlar asosiy omil bo'lib, ular yoshlarning siyosiy ongini, fuqarolik pozitsiyasini va ijtimoiy faolligini shakllantiradi.

**Kalit so'zlar:** oila, shaxs, siyosiy tizim, moslashuv, fuqarolik, siyosiy qarashlar, fuqarolik mas'uliyati, davlat.

#### РЕЗЮМЕ

Политическая социализация молодежи формируется под воздействием семьи, системы образования, религии, средств массовой информации и политических институтов, развивающих гражданское сознание и активность.

**Ключевые слова:** семья, индивид, политическая система, адаптация, гражданство, политические взгляды, гражданская ответственность, государство.

#### RESUME

Youth political socialization is shaped by the family, education system, religion, mass media and political institutions, which play a key role in developing civic awareness, responsibility and political participation.

**Keywords:** family, individual, political system, adaptation, citizenship, political views, civic responsibility, state.